



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



AKTIVLAR HISOBİ VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К УЧЕТУ, ОПИСАНИЮ И КЛАССИФИКАЦИИ АКТИВОВ

Эгамбердиева Салима Раимовна

A MODERN APPROACH TO ACCOUNTING, DESCRIPTION AND CLASSIFICATION OF ASSETS

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

Received: June 1, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni, ularni tasniflash va tavsiflash, hamda ularni xalqaro standartlar talablari asosida tan olish, baholash va hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari, aktivlarni hisobotlarda aks ettirishning maqsadi, vazifalari, asosiy tamoyillari hamda ularni axborotdan foydalanuvchilar uchun ahamiyati, aktivlarning kirimini, ta'mirini amortizatsiyasini va chiqimini hisobga olishning hozirgi holati, ularni hisobotlaridagi muammolar va ularning yechimlari hamda aktivlar hisobi va hisobotini takomillashtirish kabi masalalar yoritilgan

Kalit so'zlar: aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, foydalanish huquqidagi aktivlar, investitsiya ko'chmas mulk, investitsiya ko'char mulk, uzoq muddatli biologik aktivlar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается экономическое содержание понятия активов, их классификация и описание, а также особенности их признания, оценки и учета в соответствии с требованиями международных стандартов, цель, задачи, основные принципы отражения активов в отчетности и их значение для пользователей информации, текущее состояние учета доходов, расходов, амортизации и издержек активов, проблемы их отражения и пути их решения, а также вопросы совершенствования учета и отчетности по активам.

Ключевые слова: активы, долгосрочные активы, оборотные активы, активы права пользования, инвестиционная недвижимость, инвестиционная недвижимость, долгосрочные биологические активы, долгосрочная дебиторская задолженность.

Abstract: This article examines the economic content of the concept of assets, their classification and description, as well as the features of their recognition, evaluation and accounting in accordance with the requirements of international standards, the purpose, objectives, basic principles of reflecting assets in reporting and their significance for users of information, the current state of accounting for income, expenses, depreciation and costs of assets, problems of their reflection and ways to solve them, as well as issues of improving accounting and reporting on assets.

Keywords: assets, long-term assets, current assets, right-of-use assets, investment property, investment property, long-term biological assets, long-term accounts receivable.

■ KIRISH

Iqtisodiy ne'matlar orasida boshqa ne'matlarni ishlab chiqaruvchi ne'matlar, ya'ni resurslar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy nazariyada ular, odatda ishlab chiqarish omillari, deb e'tirof etiladi. Ishlab chiqarish omillari kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lgan bo'lsa-da, ularga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilib, turlicha

tushuntiriladi. Jumladan, siyosiy iqtisod darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat buyumlari (yer-suv, yer osti boyliklari kabi tabiiy boyliklar) ishlab chiqarish vositalari deyiladi va ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb e'tirof etiladi



Moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida aktivlarni qayta baholash, amortizatsiya va eskirishni hisoblashning zamonaviy usullari joriy etilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda uzoq muddatli aktivlarning ulushi korxona balansida o'rtacha 45–50 foizni tashkil etadi [14]. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi va moliyaviy natijalarning aniqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasida esa bu ko'rsatkich ayrim rivojlangan davlatlarda 60 foizdan oshadi, bu esa uzoq muddatli aktivlar hisobini to'g'ri yuritishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois mamlakatimizda bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar xalqaro tajribaga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va korxonalarda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Jumladan, 2023-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Moliyaviy hisob va audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, korxonalarda aktivlarni to'g'ri baholash va ularni samarali boshqarish iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi” — deb alohida qayd etilgan. [2]

Shu bilan birga, “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonun va unga oid me'yoriy hujjatlar korxonalarda uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish tartibini belgilab, ularning ijrosi majburiy ekanini ko'rsatadi.[1]

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, uzoq muddatli aktivlar hisobi

korxona moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va investitsion jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi. Ishlab chiqarish omillaridan biri bo'lgan kapital iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

Bunday guruhlariga ajratishning asosini Buxgalteriya hisobi to'g'risida qonun” tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy kontseptsiyasidir.

Bu borada xorijiy olimlar ham ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, Khakimov Fakhritdin Abdusattorovich va Rishika Khetan[6] o'z tadqiqotida uzoq muddatli aktivlar va moliyaviy barqarorlikni xalqaro standartlar asosida tahlil qilganlar. Shuningdek, mahalliy olimlardan A. Karimov[7], A. Rizakulov[8], N. Jo'rayev[13] M. Rasulov[9], Sh. Xudoyberdiyev[10], D. Tursunova[12] va boshqalarning tadqiqotlarida uzoq muddatli aktivlar hisobining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berganlar. Biroq, mavjud tadqiqotlar ko'proq nazariy asoslar va umumiy metodologik yondashuvlarga qaratilgan bo'lib, amaliyotda korxonalar duch kelayotgan muammolarni to'liq qamrab olmaydi. Xususan, uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash, amortizatsiya usullarini tanlash va ularning moliyaviy natijalarga

ta'sirini aniqlashda hali ham bir qator ziddiyatli masalalar mavjud.

Shuningdek, xalqaro standartlar (MHXS) talablarini milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilish jarayoni ham o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda uzoq muddatli aktivlar hisobini yanada chuqur o'rganish va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli, mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tadqiq etish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliyotda ham korxonalar uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda uzoq muddatli aktivlar hisobi turli yondashuvlar bilan o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotchilar ko'proq buxgalteriya amaliyotida aktivlarni dastlabki qiymatda qayd etish, amortizatsiya usullarini tanlash va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini tahlil qilishga e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, A. Karimov aktivlarni baholash masalalarini chuqur o'rgangan bo'lsa, S.R.Egamberdiyeva [3,4], N. Jo'rayevlar [13] moliyaviy hisobotlarda aktivlarni to'g'ri aks ettirishning ahamiyatini ko'rsatgan

Xorijiy olimlar esa mavzuga kengroq yondashib, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) doirasida uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirishni tadqiq etganlar. F.Khakimov[6] aktivlarni xalqaro standartlarga muvofiq qayta baholash va amortizatsiya jarayonlarini takomillashtirishni o'rganadi. Rishika Khetan[5] va hamkorlari esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda aktivlar hisobining global yondashuvlarini tahlil qilib, korxona investitsion jozibadorligini oshirishda ularning rolini ko'rsatganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadqiqotlar ko'proq amaliyotga yaqin bo'lsa, xorijiy ishlarda nazariy va metodologik asoslar kengroq yoritilgan. Bu esa mavzuni kompleks o'rganish zarurligini ko'rsatadi: bir tomondan milliy tajriba, ikkinchi tomondan xalqaro yondashuvlar uyg'unligi korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda uzoq muddatli aktivlar hisobining korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganishda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligi qo'llanildi. Nazariy jihatdan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) hamda milliy me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Amaliy jihatdan esa korxonalarning moliyaviy hisobotlari, statistik ma'lumotlar va mavjud buxgalteriya amaliyoti asosiy manba sifatida tanlandi.

Tadqiqotda taqqoslash va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Taqqoslash orqali

mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganildi, dinamik tahlil yordamida esa uzoq muddatli aktivlarning qiymati, amortizatsiya ko'rsatkichlari va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri vaqt o'tishi bilan kuzatildi. Shuningdek, statistik usullardan foydalanib, aktivlarning korxona balansidagi ulushi va ularning rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlab borildi.

Metodologiyada kontent tahlil usuli ham qo'llanilib, Prezident nutqlari, “O'zbekiston–2030” taraqqiyot strategiyasi, “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar



mazmunan o'rganildi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularning yondashuvlari solishtirildi. Bu metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, amaliy natijalarni ham ishonchli qilishga xizmat qildi.

■TAHLIL VA NATIJALAR

Uzoq muddatli aktivlar hisobi buxgalteriya amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvolini ishonchli aks ettirish, investitsion jozibadorligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish bilan bog'liq kapital investitsiyalarni buxgalteriya hisobida yuritish, chunonchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish bilan bog'liq jarayonlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish, ushbu ob'ektlarning boshlang'ich qiymatini hisob-kitob qilish hamda ushbu jarayonlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirishga oid ma'lum ijobiy natijalarga erishilgan.

Biroq, uzoq muddatli aktivlarning boshqa turlari, chunonchi investitsiyaviy mulk va biologik aktivlarning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq

boshlang'ich qiymatini aniqlash, raqamli ishlab chiqarish jarayonlarida kapital investitsiyalar hisobining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, yashil maydon ob'ektlarida kapital investitsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarni xalqaro standartlarga muvofiq kapitalizatsiya qilish tartibi, ushbu jarayonlarni hisobot shakllarida ilg'or tajribalarga tayangan holda ochiqslash uslubi o'z yechimini topmagan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi "Foydalanish huquqidagi aktiv" nomli element 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartidagi "Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar" tushunchasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartidagi BHMS "Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar" tushunchasi 16-MHXS dagi "Foydalanish huquqidagi aktiv" tushunchasining to'g'ridan-to'g'ri analogi hisoblanadi. Ammo milliy standartlarda hozirgacha bu tushuncha mavjud bo'lmagan. Milliy standartlar ijara va lizingni asosan operatsion ijara va moliyaviy ijara (lizing) sifatida tasniflagan.

Shuning uchun amaliyotda quyidagi muvofiqlik qo'llaniladi:

1-jadval

BHMS Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar

IFRS 16	Milliy standartlardagi yaqin tushuncha
Foydalanish huquqidagi aktiv (Right-of-Use Asset)	Alohida aktiv turi sifatida emas
Lizing ob'ektidan foydalanish huquqi	Moliyaviy ijarada balansda aks ettirilgan ijaraga olingan asosiy vositalar (lizing ob'ekti)
Lizing majburiyati	Lizing bo'yicha kreditorlik qarzi yoki majburiyat

MHXS (IFRS) talabiga ko'ra hisobotini milliy hisobotga transformatsiya qilayotganda ko'p hollarda "Foydalanish huquqidagi aktiv"ni Balnsda "Asosiy vositalar" tarkibidagi lizing (moliyaviy ijara) obyektiga moslashtirishadi. Milliy standartlarda u alohida balans satri sifatida emas, balki tegishli aktiv turi (asosiy vosita) sifatida qaraladi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha Moliyaviy hisobotning 1-shakli Buxgalteriya balansidagi ma'lumotlarni MHXSga transformatsiya qilish imkonini yo'q. Chunki MHXS 1-shakli "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da "Kapital qo'yilmalar" satri yo'q. Vohalanki kapital qo'yilma barcha xo'jalik subyektlarida amlga oshiriladi va MHXS ttalabi bo'yicha ular turli schyotlarda va turli standartlar asosida amalga oshiriladi.

MHXS talabi bo'yicha "kapital qo'yilma" nima mazmunda qo'llanayotganiga bog'liq holda tan olinadi va hisobi yuritiladi.

21-son BHMS hisobvaraqlar rejasidagi 0800 – "Kapital qo'yilmalar" va 1-shakl Balansdagi shu nomli modda odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qurilishi tugallanmagan obyektlar;
- montaj qilinayotgan uskunalar;
- asosiy vositalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish xarajatlari;

-hali foydalanishga topshirilmagan investitsiya loyihalari.

MHXSda bunga aynan "Kapital qo'yilma" degan alohida balans elementi mavjud emas.

Odatda u quyidagi elementlar tarkibida aks ettiriladi:

1. Tugallanmagan qurilish bo'lsa, eng ko'p uchraydigan holat.

U holda MHXS bo'yicha bu:

Qurilishi davom etayotgan ob'ekt sifatida, ya'ni 16-sonli "Mulk, zavod va uskunalar" nomli standart doirasidagi asosiy vositalar tarkibida ko'rsatiladi.

2. Kelajakda investitsion mulk bo'lsa, masalan, ijaradan daromad olish uchun qurilayotgan bino.

U holda: Qurilayotgan investitsion mulk 40-sonli "Investitsion ko'chmas mulk" nomli BHXS talablari qo'llaniladi.

3. Nomoddiy aktiv yaratilayotgan bo'lsa, masalan, dasturiy ta'minot ishlab chiqilmoqda.

U holda: Ishlab chiqilayotgan nomoddiy aktivlar sifatida 38- sonli "Nomoddiy aktivlar" nomli BHXS talablari qo'llaniladi.

Transformatsiya amaliyotida O'zbekiston milliy hisobotidan MHXSga o'tishda:

MHXSda "Kapital qo'yilma" balans elementi

21-BHMS / 1-shakl	MHXS dagi mos elementi
Kapital qo'yilmalar(qurilish)	Qurilishi davom etayotgan obyekt sifatida, ya'ni 16-sonli "Mulk, zavod va uskunalar" nomli standart (IAS 16)
Kapital qo'yilmalar (investitsion mulk)	Qurilayotgan investitsion mulk 40-sonli "Investitsion ko'chmas mulk" nomli BHXS (IAS 40)
Kapital qo'yilmalar (dastur, litsenziya va h.k.)	Ishlab chiqilayotgan nomoddiy aktivlar sifatida 38-sonli "Nomoddiy aktivlar" nomli BHXS (IAS 38)

Shuning uchun 1-shakl Balansdagi "Kapital qo'yilmalar"ning MHXSdagi eng keng tarqalgan va to'g'ridan-to'g'ri mos elementi — IAS 16 bo'yicha tugallanmagan qurilish, qurilayotgan asosiy vositalar hisoblanadi. Agar MHXS transformatsiya jadvali tuzayotgan bo'lsa, kapital qo'yilmalar tarkibi (qurilishmi, uskunami, dasturmi)ga qarab uni aniq qaysi MHXS moddasiga o'tkazish belgilanadi.

Bu holat milliy standartlar asosida tuzilgan hisobot elementlarini xalqaro standartlar asosidagi hisobotlarga transformatsiya qilishda qiyinchilik to'g'ridir va ma'lumotlarni ishonchligi va sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Fikrimizcha, yuqoridagi muammolarni yechimi sifatida uzoq muddatli aktivlar: asosiy vositalar, foydalanishi huquqidagi aktivlar, Investitsiya ko'chmas mulki, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli biologik aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni xarid qilish, qurish, yaratish, lizinga olish, parvarishlash bilan bog'liq va shu kabi uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlarni jamlash hisobini yuritish uchun "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot" nomli hisobot shakliga "Kapital qo'yilmalar" elementini kiritish maqsadga muvofiq.

Uzoq muddatli aktivlar korxona balansining eng muhim qismini tashkil etib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday aktivlarning to'g'ri buxgalteriya hisobi yuritilishi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyliги, foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot taqdim etilishi va korxona boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash ham buxgalteriya hisobining muhim

jarayonlaridan biridir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (16 -sonli va 38 BHXS lar) aktivlarni haqiqiy qiymatda aks ettirishni tavsiya qiladi. Qayta baholash natijasida aktivlarning balans qiymati oshishi yoki kamayishi mumkin va bu holat korxonaning kapitaliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida bu jarayon moliyaviy ko'rsatkichlarning shaffofligi va investorlarga taqdim etilayotgan axborotning ishonchligini oshiradi. Shu bois qayta baholash jarayonini muntazam ravishda amalga oshirish korxonalarga o'z aktivlarining real bozor qiymatini aks ettirish imkonini beradi.

Uzoq muddatli aktivlarning qiymatini pasaytirish jarayoni ham moliyaviy hisobotning haqqoniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aktiv korxonaga kutilgan iqtisodiy foydani taqdim etmasa yoki uning bozor qiymati keskin pasaysa, MHXS talablari asosida qiymatning pasaygan qismi xarajatlarga yoziladi.

Bu jarayon investorlar va kreditorlar uchun korxonaning real moliyaviy holatini aniqlashda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Uzoq muddatli aktivlar korxonaning moliyaviy barqarorligiga bir necha yo'nalishlarda ta'sir qiladi:

Aktivlarning balansda to'g'ri aks ettirilishi korxonaning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari-aktivlar tarkibi, kapitalning tuzilishi, qarz yoki va moliyaviy barqarorlik koeffitsientlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Uzoq muddatli ulushi yuqori bo'lgan korxonalarda uzoq muddatli investitsion strategiyalar ustuvor hisoblanadi.

Aktivlarning amortizatsiyasi va eskirish xarajatlari foyda ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Amortizatsiya summasining noto'g'ri hisoblanishi sof foyda, rentabellik va investitsion jozibadorlikni buzib ko'rsatishi mumkin.

Zamonaviy uskunalar va texnologik aktivlar korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Nomoddiy aktivlar-patentlar, dasturiy ta'minot va intellektual mulk obyektlari korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibi va ularning bozor qiymatiga yaqin aks ettirilishi investorlar tomonidan yuqori baholanadi. Aktivlar qayta baholangan va to'g'ri amortizatsiya qilingan korxonalar investorlarga ancha ishonchli ko'rinadi.

So'nggi yillarda korxonalarda aktivlar hisobini raqamlashtirish, inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, aktivlar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlarini yaratish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jarayon ma'lumotlar sifatini oshirib, moliyaviy hisobotlarda xatolar va farqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, amaliyotda korxonalar uzoq muddatli aktivlar hisobini yuritishda bir nechta muammolarga duch keladilar: aktivlarni to'liq identifikatsiya qilmaslik,

amortizatsiya usullarini noto'g'ri tanlash, qayta baholashning o'z vaqtida bajarilmasligi, inventarizatsiya



natijalarining hisobga olinmasligi va eskirgan aktivlarning balansdan chiqarilmasligi. Ushbu kamchiliklar korxonaning moliyaviy natijalari buzilishiga, soliq hisoboti va investorlar uchun noto'g'ri axborot taqdim etilishiga olib kelishi mumkin.

Natijada uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish, MHXS talablariga muvofiqlashtirish, raqamlashtirish darajasini oshirish va qayta baholashning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'rganilgan adabiyot manbalari va me'yoriy xujjatlar shuni ko'rsatmoqdaki, uzoq muddatli aktivlarni tavsiflash va tasniflash belgilarini yaqqol aniqlab bo'lmaydi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ilmiy ishlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda uzoq muddatli aktivlarga aniq tavsif berilmagan.

Aktivlarni uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar guruhlariga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'liqligi kapital hisobining iqtisodiy kontseptsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatidagi kontseptsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim. Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga talluqli bo'lgan. Hozirgi iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi sharoitida uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa ob'ektlari ham paydo bo'lganki,

ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar foydalanish huquqidagi aktivlar, investitsiya ko'chmas mulki, uzoq muddatli biologik aktivlar va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxona faoliyatida uzoq muddat ishtirok etishadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi.


Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Uzoq muddatli aktivlar – bu korxona mulki tarkibida uzoq muddat (bir yildan ortiq) foydalaniladigan, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan va daromad keltiruvchi iqtisodiy resurslardir. Ularning to'g'ri baholanishi va tasniflanishi korxonaning moliyaviy holatini aniq aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy ijara holatida, asosdagi aktiv moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Dastlab tan olingandan so'ng, ijara oluvchi moliyaviy ijara kelishuvi asosida egalik qilinayotgan nomoddiy aktivni mazkur xalqaro standartga muvofiq hisobga oladi. Tasviriy filmlar, video tasmlari, yozma asarlar, qo'lyozmalar, patentlar va avtorlik huquqlari kabi moddalar uchun litsenziyalash kelishuvlari asosidagi huquqlar 3- sonli BHXS faoliyat sohasida qo'llaniladi.

Uzoq muddatli aktivlarni tasniflashda ularning iqtisodiy funksiyasi, foydali muddati va pul oqimiga ta'siri e'tiborga olinadi.


Uzoq muddatli aktivlar quyidagi belgilari bo'yicha joriy aktivlardan farq qiladi:



1-rasm. Uzoq muddatli aktivlarning belgilari

2-belgi. Tasniflash mezonlari


Uzoq muddatli aktivlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi: (2-rasm).



2-rasm. Uzoq muddatli aktivlarni tasniflash mezonlari

3-belgi. Baholash buxgalteriya hisobotida muhim ahamiyatga ega:

Uzoq muddatli aktivlarning baholash usullari quyidagilar: (3-rasm).



3-rasm. Uzoq muddatli aktivlarning baholash usullari

4-belgi. Joriy aktivlardan ajralib turadigan belgilaridan biri joriy aktivlar amortizalanmaydi. Uzoq muddatli aktivlar esa amortizatsiyalanadi.

Amortizatsiya – uzoq muddatli aktivlarning eskirishini moliyaviy ifodalash. Bu xarajatlar shaklida hisoblanadi va foydaning to'g'ri hisoblanishida muhim rol o'ynaydi.

5-belgi. Moliyaviy hisobotida aks ettirish

Joriy aktivlar moliyaviy hisobotida aks ettirilmaydi. Uzoq muddatli aktivlar esa, ulardan uzoq muddat, odatda bir yildan ortiq foydalanilganligi uchun Moliyaviy hisobotlarda (balans, foyda va zarar hisobotida) uzoq muddatli aktivlar alohida satrda ko'rsatiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Uzoq muddatli aktivlar hisobi buxgalteriya amaliyotida korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va uzoq muddatli investitsiyalar kiradi hamda ishlab chiqarish jarayonini

tashkil etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Asosiy vositalar binolar, inshootlar, uskunalar va transport vositalari orqali moddiy bazani shakllantiradi. Nomoddiy aktivlar patentlar, dasturiy ta'minot va brend qiymati orqali innovatsion salohiyatni ifodalaydi. Uzoq muddatli investitsiyalar esa kelajakdagi daromadlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobida aktivlar dastlabki qiymatda qayd etilib, keyinchalik amortizatsiya va eskirish ko'rsatkichlari orqali ularning haqiqiy qiymati aniqlanadi.

Moliyaviy hisobotlarda uzoq muddatli aktivlarning to'g'ri aks ettirilishi korxona faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida qayta baholash va qiymatni pasaytirish tartiblari moliyaviy holatni yanada real ko'rsatishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli aktivlar hisobi nafaqat ichki boshqaruv, balki tashqi investorlar va kreditorlar uchun ham muhim axborot manbai bo'lib, ularni samarali boshqarish



korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Uzoq muddatli aktivlar korxonaning asosiy kapitalini tashkil etib, uning ishlab chiqarish quvvatini va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Ularning to'g'ri tasniflanishi, baholanishi va eskirish jarayonini aks ettirish korxona moliyaviy hisobotlarining ishonchliligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarining aniq qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Uzoq muddatli aktivlarning to'g'ri aniqlanishi va hisobda aks ettirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlaydi. Ularni tasniflash esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi amaliyoti va yuridik talqin nuqtai nazaridan kelib chiqib uzoq muddatli aktivlar hisobiga mulkiy alohidalik tamoyilini qo'llash quyidagicha tashkil etilishi mumkin: shaxsiy mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruv huquqida bo'lgan uzoq muddatli aktivlar, boshqa yuridik shaxslarning uzoq muddatli aktivlaridan ajratilgan holda hisobga olinadi.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi negizida yotuvchi keyingi muhim tamoyil-bu faoliyatning uzluksizligidir. Ushbu tamoyil korxonani bir maromda faoliyat yuritishini va yaqin kelajakda o'z faoliyatini davom ettirishini bildiradi. Uzluksiz tamoyiliga asosan korxonada o'z faoliyatini tugatish yoki qisqartirish niyati bo'lmaydi va shuning uchun uning majburiyatlar o'rnatilgan tartibda qondiriladi

1. Uzoq muddatli aktivlarni baholashda MHXS talablariga mos qayta baholash

usullarini joriy etish, bu aktivlarning real bozor qiymatini aks ettirishga xizmat qiladi.

2. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq uzoq muddatli aktivlar

bo'yicha MHXS standartlarini milliy amaliyotga bosqichma-bosqich to'liq integratsiya qilish zarur.

3. Moliya vazirligi tomonidan asosiy vositalarni qayta baholashning yagona

metodologiyasini ishlab chiqish, amaliyotda turlicha yondashuvlarni kamaytiradi.

4. Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha davlat statistikasini yangilash va korxonalar

kesimida ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirishmaqsadga muvofiq.

5. Korxonalarda uzoq muddatli aktivlarning foydalilik darajasini baholash (ROI, ROA kontekstida) bo'yicha ichki metodikalarni ishlab chiqish lozim.

6. Aktivlar bilan bog'liq har yillik inventarizatsiya jarayonini elektron shaklga

o'tkazish, bu xatolarni kamaytiradi.

7. Moliyaviy hisobotlarda uzoq muddatli aktivlarni ochiq sifati oshirish

orqali investorlar uchun ishonch darajasini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'RQ-439-sonli Qonun, Buxgalteriya hisobi to'g'risida, 2016-yil 13-aprel

2.Sh. Mirziyoyev, Oliy Majlisga Murojaatnoma, Toshkent, 2023-yil, 15-bet

3.S.R.Egamberdiyeva. Aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish. Innovatsion iqtisodiyot Ilmiy-amaliy elektron jurnal. 2025 noyabr,Maxsus son.629-635 betlar.

4. S.R.Egamberdiyeva. Xalqaro standartlar asosida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish Soliq va hayot elektron Ilmiy ommabop jurnal. 1-son 2026. 30-36 betlar. www.soliqvahayot.tsue.uz.

5.Rishika Khetan, Varda Sardana, Shubham Singhania & Jagvinder Singh, Financial Stability through a Global Perspective: An In-Depth Integrative Review, International Journal of System Assurance Engineering and Management, 2025-yil.

6.Khakimov Fakhritdin Abdusattorovich, Improving Accounting for Long-Term Assets in Accordance with International Standards, World Economics & Finance Bulletin, 2024-yil,

7.Karimov A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi va baholash masalalari, Toshkent, 2020-yil, 45-bet;

8.Rizakulov A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi Darslik, 1998-yil

9.Rasulov M. Amortizatsiya usullari va ularning ta'siri. Toshkent, 2021-yil, 52-bet;

10. Sh. Xudoyberdiyev, Nomoddiy aktivlar hisobining nazariy asoslari, Buxoro, 2022-yil, 38-bet;

11. Jo'rayev N. Moliyaviy hisobotlarda aktivlarni aks ettirish. Samarqand, 2019-yil, 67-bet;

12.D. Tursunova, Investitsion aktivlar va ularning boshqaruvi, Toshkent, 2021-yil, 74-bet

13. Jo'rayev N. Moliyaviy hisobotlarda aktivlarni aks ettirish. Samarqand, 2019-yil, 67-bet.

14.Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, Toshkent, 2024-yil

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Egamberdiyeva Salima Rayimovna Qarshi davlat texnika universiteti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida professori vazifasini bajaruvchi, iqtisod fanlari nomzodi, / Эгамбердиева Салима Раимовна, Каршинский государственный технический университет, Исполняющий обязанности профессора кафедры «Бухгалтерский учет и аудит», кандидат экономических наук / Egamberdiyeva Salima Rayimovna. Karshi State Technical University, Acting Professor, Department of Accounting and Auditing, PhD in Economics

E-mail: salimaegamberdiyeva147@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-5106-7166>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz